

Falakning gardishi bilan ba'zida xizmatkorlar oilasida tug'iladigan go'zal va maftunkor qizlardan biri edi u.

Unda na sep-sidirg'a, na umid va na taniqli bo'lishdan ma'no-mazmun bor edi. U birovni tushunishga ham urinmagan, sevmagan va mashhur kimsaga ham turmushga chiqmagan. Qiz Xalq Ta'limi Vazirligida ishlaydigan kichik kotibga turmushga chiqishga rozi bo'lgandi.

U oddiy kiyinar, chunki boshqachasiga imkoniyati bo'lmasdi. Ammo u chindan ham to'g'ri yo'ldan adashgandek o'ta baxtsiz edi. Modomiki, boshqa ayollardek na tabaqasi va na martabasi bor. Oila va tug'ish o'rniga faqat go'zallik, nazokat, jozibali ko'rinish dardida yurardi. Tabiiy nafislik, xushbichimlik, aql-idrokli bo'lish oliy tabaqalik belgisi hisoblanib, bu faqat aslzoda xonimlarga xos edi.

U o'zini faqat go'zalliklar va to'la-to'kis hayot uchun tug'ilganligini his qilib, to'xtovsiz azob chekardi. Turar joyining faqironaligi, devorlarning g'arib ko'rinishi, eskirgan stullar, pardalarning aft-angori unga azob berardi. Uning xilidan bo'lgan boshqa bir ayol bu narsalarni hattoki aqliga ham sig'dirolmasligini o'ylab qiynalar, asablarini tarang qilardi. Kichkina Breton[1] dehqoni kabi kundalik uy yumushlari uni afsus-nadomatlar domiga tashlab, chorasiz va ushalmas orzular girdobiga uloqtirardi.

U sharqona naqshlar bilan bezatilgan devoriy gilamlar osilgan, bronza qandillar nur taratib turgan sokin xonani, katta kresloda yonboshlab olgancha etik shim kiygan baquvvat inson haqida hayol surganicha oshxona plitasidan anqiyotgan issiq havodan og'irlashib lanch bo'ldi. U ipaklar bilan bezatilgan uzun zallarni, ko'zni quvontiradigan hashamdor mebellarni, muattar atirlarga burkangancha soat beshki bazmlarda yaqin dugonalari bilan gurung quruvchi fransuz ayollari va taniqli odamlar bilan suhbatlashishni, barcha ayollarning rashkini qo'zg'ab, ularning diqqat markazida bo'lish hayolida suzib yurardi.

Juvon uch kun oldin yozilgan daturxon bilan qoplangan aylana stol oldiga tushlik qilish uchun kelib o'tirgan mahal, sho'rva idishining qopqog'ini olib qo'ygan turmush o'rtog'i quvonch bilan xitob qildi:

- O, mazali rot-au-feu![2] Bundan ortig'i bo'lmasa kerak!

Ayoli esa lazzatli tushliklar, yaraqlayotgan kumush idishlar, qadimiy odamlarning rasmi tushirilgan devoriy gilamlar, ertaksimon o'rmon o'rtasida parvoz qilayotgan g'aroyib qushlarni hayol qilardi. Shuningdek, u jimjimador likopchalar xizmatidagi mazali taomlar, gulmohining qizg'ishrang go'shti yoki bedana qanotini yeyish davomida quloqqa kulgu aralash chalinadigan muloyim shivir-shivirlarni orzu qilardi.

Uning rango-rang ko'ylaklari, taqinchoqlari, umuman hech nimasi yo'q edi. U shulardan boshqa narsani sevmasdi. U o'zini shu matohlar uchun yaralganini his qilardi. U ko'ngilxushlik qilish, boshqalarning hasadini keltirish, maftunkor bo'lish va hammani o'ziga qaratishni yoqtirardi.

Uning ayollar monastrida birga tahsil olgan sobiq sinfdosh dugonasi bo'lib, u juda boy edi. Qiz ushbu dugonasinikiga borishni, ko'rishni yoqtirmas, sababi, doim ortiga qaytganidan so'ng azob chekardi.

Ammo bir kuni kechqurun uning turmush o'rtog'i muzaffar qiyofada uyga kirib keldi va qo'lidagi katta konvertni uzatdi.

- Bu yerda, - dedi u, - senga atalgan bir nima bor.

Ayol qog'ozni keskin tarzda yirtib tashladi-yu quyidagi so'zlar tushirilgan tamg'ali taklifnomani sug'urib oldi:

"Xalq Ta'limi Vazirligi va madam Jorjes Ramponnau hurmatli mister va madam Luizellarni 18-yanvar, dushanba kungi bazm kechasi uchun Vazirlik saroyiga lutfan taklif qiladi."

Ayol eri kutganidek xursand bo'lish o'rniga, taklifnomani nafrat bilan stol ustiga irg'itib, to'ng'illadi.

- Bu bilan nima kilishimni istagandingiz?

- Azizam, seni xursand qilmoqchi edim. Tashqariga hech chiqmaganing uchun bu yaxshi imkoniyat deb o'ylagandim. Buni qo'lga kiritish oson kechmadi. Qancha odam bu yerga borishni orzu qiladi. U yerga saralab chaqirishgan. Ayniqsa, kotiblarni aytishlari g'oyat dargumon. Bazmga faqat zodagonlar yig'iladi.

Juvon eriga darg'azab tikilib, betoqatlik bilan so'zladi.

- Axir bazmga nima kiyib boraman?

Eri bu haqda o'ylab ko'rmagandi.

- Nimaga, teatrga tushganda kiygan ko'ylagingchi?! O'sha menga juda yoqqandi, - dedi u.

So'ngra gapirishdan to'xtab qoldi. Xotining yig'layotganini ko'rib, yomon ahvolga tushdi. Ayolning qo'z qirralaridan ikkita katta tomchi yoshlar sekingina lablari tomon yumaladi.

U tutilib-tutilib gapirdi.

- Nima bo'ldi? Nima bo'ldi?

Ayol jizzakilik bilan uning rahmini keltirgandi. So'ng esa yonoqlarini artib, bosiq ovozda javob berdi.

- Hech narsa. Faqatgina ko'ylagim yo'q, shuning uchun ballga borolmayman. Taklifnomani esa xotini mendan ko'ra yaxshiroq yig'ingan hamkasblaringizga berarsiz.

Er ilojisiz edi.

- Kel Matilda, o'ylab ko'raylik, - davom etdi u. Bejirim va boshqa tadbirlarga ham kiysa bo'ladigan yarashiqli ko'ylak qancha turadi?

Juvon bir necha daqiqa chuqur o'yga tildi, hisob-kitob qildi, miqdordan taajjublanib, tejamkor kotibning gaplaridan cho'chib, o'zicha nimalardandir voz kechdi.

Vanihiyat, ikkilana-ikkilana javob berdi.

- Anig'ini bilmayman-u, o'ylashimcha to'rt yuz frank bilan nimadir qilsa bo'ladi.

Uning rangi oqarib ketdi. Chunki bu miqdordagi pul bilan u qurol sotib olishni va yakshanba kuni to'rg'ay ovlashga borgan bir necha do'stlari bilan kelasi yozda shahar chetidagi Nanterra[3] yaylovlarida o'q otish bilan o'zini-o'zi siylashni mo'ljallagan edi.

Ammo bu haqda indamadi.

- Yaxshi, senga to'rt yuz frank berganim bo'lsin. Ajoyib ko'ylak xarid qilishga urinib ko'rarsan.

Bazm kuni tobora yaqinlashar, ko'ylagi tayyor bo'lganiga qaramay madam Luizel g'amgin, behalovat va behuzur ko'rinaradi.

Bir kuni oqshom mahali turmush o'rtog'i undan so'rab qoldi.

- Nima bo'ldi? Keyingi uch kun ichida g'alatiroq bo'lib qolgansan.

Ayol javob berdi:

- Bir dona ham taqinchog'im, bir dona ham toshlarim, umuman taqishga hech narcam yo'qligidan xo'rligim kelayapti. Nihoyatda baxtsizman. Yaxshisi bormay qo'ya qolganim ma'qul.

- Tabiiy gullarni taqishning mumkin,- gapirdi mister Luizel.- Hozirda bu uslub juda urfga kirgan. O'n frank evaziga ikki yoki uchta

chiroyli atirgul sotib ololasan.

Ayol ishonqiramadi.

- Yo'q, boyvachcha xonimlar orasida bechora qiyofada ko'rinish , g'ururim poymol bo'lishini hojlamayman.

Ammo eri baqirib yubordi:

- Qanchalar axmoqsan-a! Dugonang madam Forestierni yo'qlab borib, taqinchoqlarini so'rab tur. Axir u bilan juda ham qalin o'rtoqsizlar-ku.

U xursandchilikdan qiyqirdi.

- To'ppa-to'g'ri! Bu hayolimga kelmagan ekan.

Ertasi kuni u dugonasinikiga kelib, dardini bayon qildi.

Madam Forestier oynali eshik bilan qoplangan kiyim javonidan katta taqinchoqlar qutisini olib keldi. Uni ochib, dugonasiga dedi:

- Azizim, tanlab ol!

U dastavval bilakuzuklarni, keyin marvarid marjon shodasini, keyin Venetsiya xochini, usta zargarning tilla va qimmatbaho toshlarini ko'zdan kechirdi. U ko'zgu oldida o'ziga oro berdi, ikkilandi, bulardan to'la qoniqish hosil qilmagach, joyiga qaytarib qo'ydi.

- Hammasi shumi? so'radi u.

- Nega ekan, yana bor albatta. Qarab ko'r. Nimani yoqtirishingni bilmayman-ku.

Birdaniga uning ko'zlari qora duxoba qutidagi olmosli serhasham marjon shodasiiga tushdi. Yuragi qinidan chiqayozdi. Uni ushlaganida ko'llari titrab ketdi. Taqinchoqni keng yoqali ko'ylagiga moslab, bo'yni atrofiga ildi va ko'rinishidan quvonib o'zini yo'qotdi.

Keyin esa qo'rquv, iztirob aralash so'radi.

- Menga huddi shuni berib tura olasanmi, faqat huddi shuning o'zini?

- Ha, albatta.

U dugonasining bag'riga o'zini otib, xursandligidan o'pib qo'ydi. So'ngra xazinasi bilan jo'nab ketdi.

Bazm kuni yetib keldi. Madam Luizel katta muvaffaqiyatga erishdi. U barchadan go'zal, xushbichim, po'rim, quvnoq va baxtiyor edi. Barcha erkaklarning ko'zi unda, uning ismini so'rashar, tanishishga harakat qilishardi. Vazirlar Mahkamasining barcha vakillari u bilan birga vals tushishni istashardi. Shaxsning uning o'zi vazirning e'tirofiga tushdi.

U sarxushlik bilan, ehtiros bilan raqsga tushar, ichimlik ta'sirida rohatlanib, go'zalligi zafarida, muvaffaqiyati shohsupasida, baxt osmonida suzgan barchasini unutib, o'ziga bo'lgan izzat-ikrom, hayrat, yoniq istaklar va mutlaqo muzaffarlik hislari ayolning qalbini chulg'ab olgandi.

Tongi soat to'rtga yaqin, u ketish taraddudida edi. Turmush o'rtog'i yarim tundan buyon qarovsiz xonada , xotinlari bayramni ajoyib nishonlayotgan uchta erkak bilan uxlab yotardi.

U xotining yelkasiga bazm ko'ylagining husniga dog' tushiradigan oddiygina sharfni tashlab qo'ydi. Juvon buni sezgach, qimmatbaho mo'ynaga burkangan boshqa bir ayollarning nazariga tushib qolmaslik uchun uni yulqib oldi.

Luizel uni to'xtatdi.

- Biroz kutib tur, tashqarida shamollab qolasan. Men borib, taksi ushlayman.

Lekin Matilda uni eshitmadi. Chaqqonlik bilan zinalardan pastladi. Ko'chaga chiqishib, birorta ham fayton topisholmadi. Ular qidirishni boshlagach, uzoqroqdan o'tib ketgan taksichiga ko'zlari tushib, baqirib qolaverishdi.

Chorasiz qolganicha sovuqdan qaltirab, Seine (Zayna)ga tomon yurishardi. Vanihoyat, kunduzlari umuman uchratib bo'lmaydigan, faqat yarim kechasi Parij atrofida paydo bo'ladigan eski aravani (nuktambulant) daryo bo'yida uchratishdi.

Rue des Martirs dagi uyi eshigi oldida tushib, g'amgin yurishda davom etishdi. Matilda uchun hammasi tamom bo'lgandi. Erining soat o'nda Vazirlikda bo'lishi kerakligini hayolidan o'tkazdi.

U yana bir marta shuhrat og'ushida ko'zgu orqali o'ziga tikilib, yelkalarini yopib turgan sharfni oldi. Biroq kutilmaganda chinqirib yubordi. Bo'ynidagi marjon shodasi yo'q edi!

Eri yarim yechingan ahvolda so'z qotdi.

- Senga nima bo'ldi?

U jinninamo o'girildi.

- Men... men... men madam Forestierning marjon shodasini yo'qotib qo'ydim.

Luizel joyida qotib qoldi.

- Nima?!... Qanday qilib? Bo'lishi mumkinmas!

Ular ko'ylakning qatlarini, plashning taxlamlarini-yu cho'ntagini, hamma joyni qarab chiqishdi. Ammo topilmadi.

- Bazmdan chiqqaningda u bo'yningda bo'lganiga ishonching komilmi? so'radi Luizel.

- Ha, saroy dahlizida turganimda u bo'ynimda edi.

- Agar uni ko'chada tushirganingda ovozini eshitgan bo'lardik. U taksida qolgan bo'lishi kerak.

- Ha, ehtimol. Raqamini olganmidingiz?

- Yo'q, sen-chi, eslolmaysanmi?

- Yo'q.

Ular hayratomuz tikilib turishardi. Oxiri, Luizel kiyimlarini kiydi.

- Men piyoda ortga qaytaman, - dedi u. Bosib o'tgan yo'nalish bo'ylab yurib, topishga urinib ko'raman.

U chiqib ketdi. Matilda bazm ko'ylagida kresloda o'tirib, ko'ziga uyqu kelmay, olovni ham yoqmay, hayoliga bir fikr kelmay uni kutardi. U soat yettilar atrofida izlaganini topolmay, quruq qaytib keldi.

Luizel militsiya boshqarmasiga, gazeta idoralariga borib mukofotlar e'lon qildi. U barcha taksi kompaniyalarini umid ilinjida aylanib chiqdi.

Falokatga yo'liqqan ayol kun bo'yi vahima ichida kutdi. Tunda Luizel siniqqan, oqish yuz bilan qaytdi. Hech qanday yangilik yo'q edi.

- Dugonanga dedi u, - taqinchoq'ining ilgakini buzib qo'yganing, uni tuzatish uchun biroz vaqt kerakligini yozib yubor.

U birma-bir hammasini xatga tushirdi.

Hafta oxirida ular umidini butunlay uzishdi.

Naq besh yoshga qarigan Luizel so'zladi.

- Endi taqinchoqni o'rniga qanday qaytarish haqida bosh qotirishimiz lozim.

Keyingi kun ular qutini olib, dong'i chiqqan zargarnikiga borishdi. Luizel uning kitobini qarab chiqdi.

- Madam, men marjon shodasi sotadigan sotuvchi emasman. Shunchaki, kutilarga bezak beraman xalos.

Shundan so'ng, ular zargarma-zargar yurib, o'sha marjon shodasiga o'xshashini izlashdi, ulardan maslahat olishdi. Ikkalovi ham alam va izzitirob bilan xastanamo edilar.

Palais Royaldagi do'konda ular qidirayotgan taqinchoqqa juda o'xshash olmos shodasiga duch kelishdi. Narxi qirq ming frank turar ekan. Ular buni o'ttiz olti ming evaziga xarid qilishlari mumkin edi.

Er-xotin zargarga uch kungacha uni sotmasligini so'rab yolvorishdi. Luizel taqinchoqni o'ttiz olti ming frankka olish to'g'risida o'zaro kelishuv qilishdi. Har ehtimolga qarshi, ular feral oxirida yana boshqasini ham topib qo'yishdi.

Luizelda otasi unga qoldirgan o'n sakkiz ming frank bo'lib, qolganini qarz oldi.

U birovdan ming frank, boshqasidan bush yuz, besh luisni u yerdan, uch luisni bu yerdan so'rab, qarz qig'di. U barchasini qayd etib qo'ydi. Xonavayron qiladigan va'dalar berdi, sudxo'rlar va barcha qarz beruvchi zoti bilan bitim tuzdi. U qolgan umrini xavf ostiga qo'yib, hattoki harajatlarni to'lay olish yoki olmasligini bilmay turib, tavakkal imzo qo'ydi. U hali boshidan o'tkazmagan uqubatlar, uni yiqitishi mumkin bo'lgan o'ta qashshoqlik, moddiy muhtojlikning kelajagi va unga azob beradigan ruhiy qiynoqlardan vahimada edi. U marjon shodasini olish uchun keldi va savdogarning rastasiga o'ttiz olti ming frankni tashladi.

Madam Luizel marjon shodasini qaytarish uchun kelganida, madam Forestier unga sovuq ohangda gapirdi.

- Buni tezroq qaytarishing lozim edi. O'zinga zarur bo'lib qoldi.

U qo'rqqanidek, dugonasi qutini ochmadi. Agar taqinchoq boshqa ekanligini bilib qolganida nimani o'ylagan, nimalar degan bo'lardi? Madam Luizelni o'g'irlikda ayblarmidi?

Madam Luizel hozir yo'qchilikda yashashni qo'rqinch bilan his qilgandi. Tasodifiy hodisada qahramonlarcha ishtirok etdi. Endi esa dahshatli qarzdorlikdan qutulmoq lozim. Ayol buni to'laydi. Ular xizmatkorini ishdan bo'shatishdi; Turar joyini o'zgartirishdi; tom ustidagi cherdakni kiraga olishdi.

U uy yumushlarining naqadar og'irligini, oshxona tashvishlarining yoqimsizligini anglab yetib, yog'li qozon va tova uchun pushti tirnoqlarini ishlatardi. U kir polotnoni, erining ko'ylagini va idish artadigan sochiqlarni yuvaradi. Har kuni ertalab yuvindilarni ko'chaga olib chiqib, zinaoyalarda to'xtab nafas rostlagancha suv olib chiqardi. Odamlarning xotiniga o'xshab kiyinar, qo'lida savat bilan meva, baqollik, go'sht do'koniga borar, savdolashar, haqorat qilar, mayda pullarini tiyinigacha hisoblardi.

Har oy qarzning biroz miqdorini uzishsa, qolganini uzaytirishardi.

Turmush o'rtog'i kechqururlari savdogarning hisob-kitoblaridan nusxa yozar, tunga borib varog'i uchun 5 luis evaziga qadimiy qo'lyozmalardan namuna ko'chirardi.

Bu turmush tarzi o'n yil davom etdi.

O'n yildan so'ngina ular hamma narsani, hamma-hammasini sudxo'rlarga nisbati va qo'shma foizlari bilan to'lab bo'lishdi.

Madam Luizel endilikda qarimsiq qo'rinardi. Kambag'allashgan ayol kuchli, qattiqqo'l va qo'rs bo'lib qolgandi. To'zg'igan soch, qiyshaygan yupka va qizargan qo'llari bilan suvlangan polni artish davomida baqirib gapirardi. Ba'zan, eri idorada bo'lgan vaqtlarda, u derazaga yaqin o'tirgancha yillar oldingi faraxbaxsh kechani, u nihoyatda latofatli va go'zal bo'lgan ball haqida hayol surardi.

Agar u marjon shodasini yo'qotmaganida nima bo'lardi? Kim ham bilardi? Kim biladi deysiz? Hayot qanchalar g'aroyib va o'zgaruvchan! Kichkinagina voqea ba'zan yashash yoki hayotdan umid uzishga yetarli bo'ladi!

Yakshanba kuni edi. Haftalik mehnatlarning xordig'ini chiqarish maqsadida Champs Elyseesda sayr qilib yurib, bola yetaklagan ayolga to'satdan duch keldi. Hanuz yosh, hanuz go'zal, hanuz maftunkor bo'lgan madam Forestier edi.

Madam Luizel hayajonlandi. U bilan gaplashsinmi? Ha, albatta. Axir hammasini to'lab bo'lgan, endi bor gapni aytaversa ham bo'ladi.

U tepaga ko'tarildi.

- Xayrli kun, Jinni!

Unga tanishidek murojaat qilgan oddiy yoqimtoy juvondan taajjublandi yu, ammo uni mutlaqo tanimadi.

- Lekin... madam! tutulib garirdi u. Sizni tanimadim... Adashgan bo'lsangiz kerak.

- Yo'q. Men Matilda Luizelman.

Dugonasi qichqirib yubordi.

- O, bechora Matilda! Qanchalar o'zgarib ketibsan!

- Ha, seni oxirgi bor ko'rganimdan buyon qancha og'ir kunlarni boshdan kechirdim.. qancha musibatli kunlarni... Hammasi sen tufayli bo'ldi!

- Meni deb! Qanday qilib?

- Saroydagi bazmga taqib turish uchun menga bergan olmos shodalarini eslaysanmi?

- Ha, xo'sh?

- Meni uni yo'qotib qo'ygandim.

- Nimani nazarda tutayapsan? Uni keltirib berganding-ku.

- Senga huddi o'xshashini olib kelib bergandim. So'ngra buning to'lovini o'n yil davomida uzdik. Tushunayapsanmi, hech vaqosi yo'q kimsa uchun bu qanchalar mushkul edi. Vanihoyat, hammasi tugadi. Bundan juda xursandman.

Madam Forestier yurishdan to'xtadi.

- Aytmoqchisanki, menikini o'rniga qaytarish uchun olmos shodasini sotib olgansan?

- Ha! Sen buni sezmadim ham! Ular juda o'xshash edi.

Matilda mamnun kuldi.

Madam Forestier kattiq titrab ketdi, uning qo'llarini ushlab, dedi:

- O, bechoraginam Matilda! Nima uchun, mening taqinchoq'im sun'iy toshlardan yasalgan edi-ku!

† Breton- quyi Normandiyadagi g'arbiy Fransiyaning yarim oroli bo'lgan Brittanidan

This is not registered version of TotalDocConverter

† Nanterra Parijning g'arbiy chekkasi